



## PRE-TRIAL REVIEW OF ADMINISTRATIVE DECISIONS IN ACCORDANCE WITH LEGISLATION WHEN OBTAINING TECHNICAL CONDITIONS FOR CONNECTION TO WATER SUPPLY AND SEWERAGE NETWORKS

*Doniyor Bakhtiyorovich Rakhimov*

*Doctor of Science (DSc)*

*Acting Professor at the Institute Training for Lawyers  
under the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan*

*E-mail: [Mrdonyor72@gmail.com](mailto:Mrdonyor72@gmail.com)*

*Tashkent, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** water supply, wastewater disposal, technical conditions, administrative act, pre-trial review, administrative appeal, consumer rights, infrastructure connection, digitalization, transparency, independent regulator, comparative legal analysis.

**Received:** 19.12.25

**Accepted:** 20.12.25

**Published:** 21.12.25

**Abstract:** This article examines the legal nature and practical significance of the pre-trial (administrative) review of administrative acts adopted in the process of issuing technical conditions for connection to water supply and wastewater disposal networks. Based on the analysis of the current legislation of the Republic of Uzbekistan, the procedure for obtaining technical conditions, consumer rights, and administrative appeal mechanisms are discussed. Particular attention is paid to a comparative legal analysis of the experience of the United States, Germany, UK and Japan in the field of pre-trial dispute resolution. As a result of the study, proposals are formulated to improve the national system of pre-trial review, including the introduction of independent regulation, digitalization of procedures, and strengthening of the technical expertise institution. The implementation of these measures aims to enhance transparency, reduce corruption risks, and ensure effective protection of consumers' rights.

**SUV TA'MINOTI VA SUVNI CHIQRIB TASHLASH TARMOQLARIGA ULANISH  
UCHUN TEXNIK SHARTLARNI OLISSHA QONUNCHILIK HUJJATLARIGA  
MUVOFIQ MA'MURIY HUJJATLARNI SUDGACHA KO'RIB CHIQUISH**

**Doniyor Baxtiyorovich Raximov**

*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti professori v.b., yuridik fanlari doktori (DSc)*

*E-mail: [Mrdoniyor72@gmail.com](mailto:Mrdoniyor72@gmail.com)*

*Toshkent, O'zbekiston*

---

## MAQOLA HAQIDA

---

**Kalit so'zlar:** suv ta'minoti, suvni chiqarib tashlash, texnik shart, ma'muriy hujjat, sudgacha ko'rib chiqish, ma'muriy shikoyat, iste'molchi huquqlari, infratuzilmaga ulanish, shaffoflik, raqamlashtirish, mustaqil tartibga soluvchi organ, qiyosiy-huquqiy tahlil.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash tarmoqlariga ulanish uchun texnik shartlarni olish jarayonida qabul qilinadigan ma'muriy hujjatlarni sudgacha ko'rib chiqish institutining huquqiy mohiyati va ahamiyati tahlil qilingan. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi asosida texnik shart berish tartibi, iste'molchilar huquqlari hamda ma'muriy shikoyat mexanizmlarining o'rni yoritib berilgan. Shuningdek, AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya va Yaponiya tajribasi asosida sudgacha nizolarni hal etishning samarali modellariga qiyosiy tahlil o'tkazilgan. Tadqiqot natijasida texnik shartlarni berishda shaffoflikni ta'minlash, mustaqil tartibga soluvchi organlar faoliyatini yo'lga qo'yish, raqamlashtirish va ekspertiza institutlarini kuchaytirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Mazkur takliflar infratuzilmaga ulanish jarayonida korrupsiyani kamaytirish, iste'molchilar huquqlarini samarali himoya qilish hamda ma'muriy adolatni ta'minlashga xizmat qiladi.

---

## ДОСУДЕБНОЕ РАССМОТРЕНИЕ АДМИНИСТРАТИВНЫХ РЕШЕНИЙ В СООТВЕТСТВИИ С ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВОМ ПРИ ПОЛУЧЕНИИ ТЕХНИЧЕСКИХ УСЛОВИЙ НА ПОДКЛЮЧЕНИЕ К СЕТЯМ ВОДОСНАБЖЕНИЯ И ВОДООТВЕДЕНИЯ

**Данияр Бахтиярович Рахимов**

*Доктор юридических наук (DSc)*

*и.о. профессора Института переподготовки и  
повышения квалификации юридических кадров  
при Министерстве юстиции Республики Узбекистан,*

*E-mail: [Mrdoniyor72@gmail.com](mailto:Mrdoniyor72@gmail.com)*

*Ташкент, Узбекистан*

---

## О СТАТЬЕ

---

**Ключевые слова:** водоснабжение, водоотведение, технические условия, административный акт, досудебное рассмотрение, административная жалоба, права потребителей, подключение к

**Аннотация:** В статье рассматривается правовая природа и практическое значение досудебного рассмотрения административных актов, принимаемых при выдаче технических

инфраструктуре, цифровизация, условий для подключения к сетям водоснабжения и водоотведения. На основе прозрачность, независимый регулятор, сравнительно-правовой анализ. водоснабжения и водоотведения. На основе анализа законодательства Республики Узбекистан раскрыты порядок получения технических условий, права потребителей и механизмы административного обжалования. Особое внимание уделено сравнительно-правовому анализу зарубежного опыта США, Германии, Великобритании и Японии в сфере досудебного урегулирования споров. В результате исследования сформулированы предложения по совершенствованию национального механизма досудебного рассмотрения, включая внедрение независимого регулирования, цифровизацию процедур и усиление института технической экспертизы. Реализация данных мер направлена на повышение прозрачности, снижение коррупционных рисков и обеспечение эффективной защиты прав потребителей.

---

**Kirish.** Dunyoda, shuningdek O‘zbekistonda ham suv ta’minoti, undan foydalanish va suvni chiqarib tashlash yuzasidan bir qator muammolari mavjud. Jumladan, infratuzilmadagi eskirish va etarli modernizatsiya qilinmaslik. Ko‘plab davlatlarda, ayniqsa rivojlangan mamlakatlarda suv quvurlari 40-60-yillik bo‘lib, ko‘p joylarda avariya, oqish, suv yo‘qotishlarining yuqori darajasi kuzatiladi.

Shuningdek, muammolarning yana biri suv resurslarining etishmasligi va iqlim o‘zgarishi bo‘lib, suv tanqisligi bo‘lgan mamlakatlarda yangi iste’molchilarni ulashdan oldin resurs etarililigi bo‘yicha cheklovlar qo‘yiladi. Ayrim davlatlarda ulanishga kvotalar yoki navbatlar mavjud.

Bundan tashqari, kanalizatsiya tizimining past qamrovi bo‘lib, dunyoda 3,5 mlrd. odam markazlashgan kanalizatsiya tarmog‘iga ulanmagan.

Yuqorida qayd qilinganlardan tashqari, muammolarning yana biri bu raqobatsiz monopol tizimlar mavjudligi. Ko‘plab mamlakatlarda suv ta’minoti – yagona monopol tashkilot tomonidan amalga oshiriladi. Bunda, texnik shartlatni berish uzoq davom etishi, narxlar baland bo‘lishi, byurokратиyaning ortishi mumkin.

Suv ta’minoti va suvni chiqarib tashlash tarmoqlariga ulanish, ayniqsa urbanizatsiya va sanoat rivojlanishi jarayonida, fuqarolar va tadbirkorlar huquqlarini himoya qilishda muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 68-moddasi birinchi qismida, er, er osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umumxalq boyligidir,

ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir deb qayd qilingan. Ushbu moddaning mazmunidan ham anglashiladiki, suv ham umumxalq boyligidir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasida ekan.

Bu borada davlatimiz tomonidan bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, maqsadli davlat dasturlari doirasida aholiga ichimlik suvi ta'minoti va kanalizatsiya xizmatlarini yaxshilash maqsadida 11207 km suv ta'minoti va 593 km kanalizatsiya tarmog'i yotkizildi, 1740 ta ichimlik suvi ta'minoti va kanalizatsiya inshootlari qurildi va ta'mirlandi .

Keltirib o'tilgan fikrga qo'shilgan holda ta'kidlash joizki aholiga ichimlik suvi ta'minoti va kanalizatsiya xizmatlarini yaxshilash maqsadida amalga oshirilayotgan harakatlar insonlarga suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash tarmoqlariga ulanish kabi huquqlarini amalga oshirishga keng imkoniyatlar yaratadi.

Fuqarolar yoki yuridik shaxslar suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash (kanalizatsiya) tarmoqlariga ulanishga bo'lgan huquqlari texnik shartlar olish orqali amalga oshiriladi.

Texnik shart nafaqat suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash (kanalizatsiya) tarmoqlariga ulanishga ruxsat beruvchi hujjat, balki fuqaro yoki tadbirkor uchun huquqiy himoya vositasidir.

Amaliyotda texnik shart berishning kechiktirilishi, rad etilishi yoki asossiz talablar qo'yilishi fuqarolar va tadbirkorlarning huquqlarini cheklaydi. Shu sababli, texnik shart ustidan sudgacha ko'rib chiqish mexanizmini chuqur tahlil qilish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarbdir.

Shu nuqtayi nazardan, "Raqamli O'zbekiston – 2030" dasturi doirasida "O'zsuvt'a'minot" AJ tomonidan iste'molchilarga Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yilgan, hozirda ularga 5 turdagi: - suv hisoblagichini qiyoslashdan o'tkazish, ularni echish, o'rnatish va tamg'alash; - ko'rsatiladigan xizmatlar bo'yicha shartnomalar tuzish; - suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash loyihasini kelishish; - suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash tarmoqlariga ulanish uchun texnik shartlarni olish xizmatlari ko'rsatib kelinmoqda .

Suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash (kanalizatsiya) tarmoqlariga ulanish uchun texnik shartlar olish tartibi O'zbekiston Respublikasining Suv kodeksi, "Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish to'g'risida"gi Qonuni, shuningdek idoraviy nizomlar bilan tartibga solinadi.

Ushbu jarayonda suv ta'minoti tashkilotlari tomonidan qabul qilinadigan ma'muriy hujjatlar – texnik shart berish yoki rad etish haqidagi qarorlar – ahamiyatli yuridik oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash tarmoqlariga ulanish uchun texnik shartlarni olishda qonunchilik hujjatlariga muvofiq ma'muriy hujjatlarni sudgacha ko'rib chiqish yuzasidan

rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish uni yanada takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu boradagi mavjud muammolarni hal qilish uchun soha tashkilotlari tomonidan qabul qilingan qarorlar ustidan sudgacha ma'muriy tartibda shikoyat qilish mexanizmlarining mavjudligi va ulardan foydalanish amaliyotda bir qator muhim afzalliklarga ega hususan,

birinchidan, huquqlar samarali va tez himoya qilinadi. Sudgacha ko'rib chiqish fuqarolar va tadbirkorlik subyektlariga sudga murojaat qilmasdan turib, qisqa muddatlarda: texnik shart berish rad etilishi; asossiz qo'shimcha talablar qo'yilishi; muddatlarga rioya qilinmasligi; xizmat ko'rsatishdan asossiz bosh tortish kabi holatlarni hal qilish imkonini beradi.

Ikkinchidan, bu davlat organlari faoliyati ustidan tezkor nazorat shakli hisoblanadi. Ma'muriy tartibda shikoyat qilish: qaror qabul qilgan davlat organi (suv ta'minoti korxonasi), tegishli yuqori turuvchi tashkilotlar, vakillik va tartibga soluvchi organlar tomonidan qarorning qonuniyligi va asoslanganligini qayta ko'rib chiqishga imkon beradi. Bu ichki nazoratni kuchaytiradi, korrupsiya holatlarining oldini oladi va davlat xizmatlari sifatini oshiradi.

Uchinchidan, sudlarga ortiqcha yuklamaning kamayishini ta'minlaydi. Sudgacha tartib muhim "filtr" vazifasini bajaradi. Ko'plab holatlar aynan ma'muriy organlar darajasida tez va samarali hal etiladi. Natijada, fuqarolar sud xarajatlaridan qutuladi, jarayonlar tezlashadi, sudlar ortiqcha ishlar bilan band bo'lmaydi.

To'rtinchidan, qarorlarning shaffofligi va asoslanganligini ta'minlaydi. Sudgacha ko'rib chiqish mexanizmlarini qo'llash davlat organlaridan: - hujjatlarni qonuniy asoslarda tayyorlash; - rad etish sabablarini yozma asoslash; - texnik me'yorlarga qat'iy amal qilish kabi talablarni oshiradi. Bu esa texnik shartlar berish jarayonini shaffof va standartlashtirilgan shaklga keltiradi.

Beshinchidan, ma'muriy ish yurituvining muhim qismi sifatida O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 08-yanvardagi "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi O'RQ-457-son Qonuniga ko'ra: - har bir shaxs ma'muriy organ qaroridan yuqori turuvchi organga shikoyat qilish huquqiga ega; - ma'muriy shikoyatni ko'rib chiqish muddati odatda 30 kundan oshmaydi; - zarurat bo'lsa, qo'shimcha tekshiruv o'tkazilishi mumkin .

Demak, sudgacha tartib – ma'muriy adolatni tiklashning zarur bosqichi hamdir.

O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 22-iyuldagi "Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish to'g'risida"gi O'RQ-784-son Qonunining 3-moddasida yoritilayotgan masalaga oid quyidagi tushunchalar keltirilgan:

ichimlik suvi ta'minoti – ichimlik suvini ichimlik suvi ta'minoti tarmoqlari orqali va (yoki) transportda iste'molchilarga etkazib berish;

oqova suvlarni chiqarib yuborish – oqova suvlarni ichimlik suvi ta’minoti tashkilotining tasarrufida bo’lgan oqova suvlarni chiqarib yuborish tarmoqlariga qabul qilish va ularni oqova suvlarni tozalash inshootlariga chiqarib yuborish;

texnik shart – jismoniy va yuridik shaxslarni ichimlik suvi ta’minoti hamda (yoki) oqova suvlarni chiqarib yuborish tarmoqlariga ulash uchun ular tomonidan ijro etilishi lozim bo’lgan tadbirlar ro’yxatini o’z ichiga olgan hujjat.

O‘zbekiston Respublikasining Suv Kodeksi 135-moddasida, ichimlik va xo‘jalik-maishiy suv ta’minoti er usti va er osti manbalarining, ichimlik va xo‘jalik-maishiy suv ta’minoti tizimlari inshootlarining sanitariya muhofazasi zonasida xo‘jalik faoliyatini amalga oshirish rejimi belgilangan bo‘lib, unga ko‘ra, ichimlik va xo‘jalik-maishiy suv ta’minoti er usti va er osti manbalari sanitariya muhofazasi zonasining birinchi mintaqasi hududida, shuningdek ichimlik va xo‘jalik-maishiy suv ta’minoti tizimlari inshootlari sanitariya muhofazasi zonasining birinchi mintaqasi hududida quyidagilar taqiqlanadi: oqova suvlarni tozalash inshootlari birinchi mintaqadan tashqarida joylashtirilgan holda, barcha binolar suvni chiqarib tashlashning eng yaqin tizimiga ulangan bo‘lishi kerak, oqova suvlarini chiqarib yuborish mavjud bo‘lmagan taqdirda, axlatlarni chiqarib tashlashga doir sanitariya talablari hisobga olingan holda suv o‘tmaydigan, axlat tushadigan o‘ralar barpo etilishi kerak (oltinchi xat boshi).

O‘zbekiston Respublikasining “Ichimlik suvi ta’minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish to‘g‘risida”gi Qonunining 18-moddasiga asosan, iste’molchilar quyidagi huquqlarga ega:

- ichimlik suvi ta’minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo‘yicha xizmatlarning uzluksiz va xavfsiz ko‘rsatilishini, shuningdek o‘z hayoti, sog‘lig‘i va mol-mulkiga xavf tug‘dirmaydigan sifatga va miqdorga ega bo‘lgan ichimlik suvi berilishini shartnoma shartlariga muvofiq talab qilish;

- ichimlik suvi ta’minoti tashkiloti shartnomada ko‘rsatilgan o‘z majburiyatlarini bajarmagan taqdirda, jarimalar (penyalar) va boshqa to‘lovlar to‘lanishini qonunchilikka muvofiq talab qilish;

- asossiz ravishda undirilgan to‘lovlarning qaytarilishini ichimlik suvi ta’minoti tashkilotidan talab qilish;

- ichimlik suvi ta’minoti va (yoki) oqova suvlarni chiqarib yuborish bo‘yicha xizmatlar uchun tegishli to‘lovlarni to‘liq to‘lagan holda shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilish;

- ichimlik suvining sifati to‘g‘risidagi axborotni hamda ichimlik suvi ta’minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar uchun qarzdorlik haqidagi ma’lumotlarni ichimlik suvi ta’minoti tashkilotidan bepul olish.

Iste’molchilar qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Mazkur qonunning 36-modda 2–3 qismlariga binoan, ichimlik suvining miqdori va bosimi, shuningdek oqova suvlarni qabul qilish sig‘imi etarli bo‘lganda, jismoniy va yuridik shaxslar ichimlik suvi ta‘minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tarmoqlariga ichimlik suvi ta‘minoti tashkiloti tomonidan taqdim etilgan texnik shartlar asosida ulanishi mumkin. Taqdim etilgan texnik shartlar asosida jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan tayyorlangan ichimlik suvi ta‘minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish tarmoqlariga ulanish loyihalari ichimlik suvi ta‘minoti tashkilotlari bilan kelishib olinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagi “Muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanish bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatishning ma‘muriy reglamentlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 256-son qarori bilan tasdiqlangan “Yuridik va jismoniy shaxslarni suv ta‘minoti va suvni chiqarib tashlash tarmoqlariga ulash bo‘yicha davlat xizmatlari ko‘rsatishning ma‘muriy reglamenti” yuridik va jismoniy shaxslarni (keyingi o‘rinlarda iste‘molchilar deb ataladi) suv ta‘minoti va suvni chiqarib tashlash tarmoqlariga ulash tartibini belgilaydi .

Reglamentning 5-bandiga ko‘ra, iste‘molchilarni suv ta‘minoti va suvni chiqarib tashlash tarmoqlariga ulash jarayonini amalga oshirishda:

a) suv quvurlari va kanalizatsiya xo‘jaligi tashkiloti (keyingi o‘rinlarda SQKX tashkiloti deb ataladi):

- texnik shartlarni ishlab chiqadi;
- loyihalash va qurilish-montaj ishlarini amalga oshiradi (iste‘molchining ixtiyoriga ko‘ra);
- suv ta‘minoti va suvni chiqarib tashlash loyahasini, shu jumladan binolar, inshootlar va boshqa ob‘ektlar qurilishining loyiha-smeta hujjatlarini ko‘rib chiqish va kelishish jarayoni bilan bir vaqtda texnik shartlarga muvofiqligini ko‘rib chiqadi va kelishadi, agar loyiha ishlab chiquvchi loyihalash tashkiloti bo‘lsa;

- suvni hisobga olish priborini plombalashni amalga oshiradi;

- suv ta‘minoti va suvni chiqarib tashlash xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha shartnoma tuzadi;

- suvni etkazib berish va oqova suvlarni qabul qilishni amalga oshiradi.

b) loyihalash va qurilish-montaj tashkilotlari loyihalash va qurilish-montaj ishlarini amalga oshiradi (iste‘molchining ixtiyoriga ko‘ra).

Reglamentning 6-bandiga asosan, davlat xizmatlari markazlari, SQKX tashkilotlari, loyihalash va qurilish-montaj tashkilotlari o‘rtasida axborot almashinuv elektron raqamli imzoni (keyingi o‘rinlarda ERI deb ataladi) majburiy tartibda qo‘llash orqali faqat idoralararo elektron o‘zaro bog‘lanish yordamida amalga oshiriladi.

Quyidagi hollarda texnik shartlar, suv ta‘minoti loyahasini ishlab chiqish va kelishish talab etilmaydi:

- maishiy iste'molchilar uchun xonadonlar, shaxsiy uy-joylar, dala hovlilar, yordamchi xo'jaliklar va shaxsiy foydalaniladigan tomorqa bog' ob'ektlarida;

- ko'chmas mulk ob'ekti bo'yicha birlamchi texnik shart mavjud bo'lib begonalashtirilganda;

- fuqaroning familiyasi, ismi va otasining ismi o'zgarganda;

- tadbirkorlik subyekti – yuridik shaxsning tashkiliy-huquqiy shakli va (yoki) firma nomi o'zgarganda;

- ulanish nuqtalari o'zgarganda, suvdan foydalanish hajmlari o'zgarasdan ishlab chiqarish faoliyati turlari o'zgarganda.

Bunday hollarda, davlat xizmatlari markazlari yoki O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali faqat hisobga olish tizimini o'rnatish, plombalash va suv ta'minoti shartnomasini tuzish uchun murojaat qilinadi. Agar qurilish-montaj ishlari va hisobga olish pribori o'rnatilishi talab etilmasa, SQKX tashkiloti tomonidan iste'molchiga tizim orqali faqat suv ta'minoti shartnomasi yuboriladi.

Iste'molchilar suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash tarmoqlariga ulanish uchun texnik shart olishga Davlat xizmatlari markazlariga o'zi kelib murojaat etadi yoki YaIDXPda davlat xizmatlaridan elektron tarzda foydalanish uchun ro'yxatdan o'tadi.

Ichimlik suv ta'minoti ob'ektlari foydalanishga tayyor holda topshirilgan taqdirda (o'lchash vositalari o'rnatilib, ichimlik suv uy ho'jaligigacha yetkazilgan taqdirda), iste'molchining ixtiyoriga ko'ra SQKX bilan to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzish va suvni hisobga olish priborini plombalash amalga oshiriladi.

O'zi kelib murojaat etganda Davlat xizmatlari markazi xodimi iste'molchi nomidan, YaIDXP orqali murojaat qilinganda esa iste'molchi mustaqil ravishda ushbu Reglamentning 2-ilovasiga muvofiq davlat xizmatlaridan foydalanish uchun so'rovnomanini elektron tarzda to'ldiradi.

Zarur hollarda so'rovnomada ulanish nazarda tutilayotgan suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash tarmoqlarini balansda saqlovchilarning roziligi mavjudligi haqidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Iste'molchilardan ushbu bandda ko'rsatilmagan ma'lumotlarni va boshqa hujjatlarni taqdim etishni talab qilish qat'iy taqiqlanadi.

Iste'molchi zarur ma'lumotlarni rasmiylashtirgandan va so'rovnomaga kiritgandan so'ng ma'lumotlarning to'g'riligini tekshiradi va imzolarni identifikatsiya qilishning tegishli vositalari (daktiloskopiya, elektron imzo, Mobil-ID va boshqalar) bilan tasdiqlaydi.

Iste'molchi YaIDXP orqali murojaat etgan taqdirda, so'rovnomanini ERI bilan tasdiqlash talab etilmaydi.

Davlat xizmatlarini ko'rsatish uchun bazaviy hisoblash miqdorining 10 foizi miqdorida yig'im undiriladi, suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash loyihasi binolar, inshootlar va boshqa ob'ektlar qurilishining loyiha-smeta hujjatlarini ko'rib chiqish va kelishish jarayoni bilan bir vaqtda kelishiladigan holatlar bundan mustasno.

Davlat xizmati ko'rsatilishi uchun YaIDXP orqali murojaat etilganda, yuqorida qayd qilingan bandning birinchi xatboshida ko'rsatilgan yig'im summasining 90 foizi undiriladi.

Jismoniy shaxslarni suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash tarmoqlariga ulashda "Ijtimoiy himoya yagona reestri" axborot tizimida ro'yxatga olingan yoki "Kambag'al oilalar reestri" axborot modulining sariq toifasiga kiritilgan oilalarning a'zolariga, shuningdek, I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslarga mazkur bandning birinchi xatboshisida belgilangan yig'imning 50 foizi miqdorida, "Kambag'al oilalar reestri" axborot modulining qizil toifasiga kiritilgan oilalarning a'zolariga belgilangan yig'imning 75 foizi miqdorida chegirma qo'llaniladi.

O'zbekistonda suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash tarmoqlariga ulanish uchun texnik shartlarni olishda qonunchilik hujjatlariga muvofiq ma'muriy hujjatlarni sudgacha ko'rib chiqish bir nechta bosqichlarda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqichda, texnik shart berish rad etilgan yoki kechiktirilgan taqdirda, fuqaro yoki tadbirkor tuman yoki shahar suv ta'minoti tashkilotiga yozma shikoyat bilan murojaat qiladi.

Shikoyatda:

- arizachining ma'lumotlari;
- texnik shart so'ralgan sana;
- rad etish sabablari;
- qonun buzilishi holatlari;
- aniq talablar ko'rsatiladi.

Ikkinchi bosqichda yuqori turuvchi organga murojaat qilinadi.

Agar birinchi bosqichda shikoyat rad etilsa yoki belgilangan muddatda javob berilmasa, shikoyat "O'zsuvta'minot" AJ yoki tegishli vazirlikga berilishi mumkin.

Shuningdek, bugungi kunda texnik shart olish va uning ustidan shikoyat qilish my.gov.uz yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali amalga oshiriladi. Bu shaffoflikni ta'minlashda muhim mexanizm hisoblanadi.

Bu borada uchraydigan asosiy muammolar:

- texnik shart berishning kechiktirilishi;
- ma'muriy idoralar tomonidan asossiz talablar qo'yilishi;
- elektron tizimlar va shaffoflik etarli emasligi;
- sudga murojaat qilish jarayonida fuqarolarning huquqiy savodxonligi pastligi.

Sudgacha ko'rib chiqishning oqibatlari:

- texnik shart berish yoki rad etish bo'yicha qaror qabul qilinadi.
- sudgacha tartibga rioya qilinmagan holda to'g'ridan-to'g'ri sudga murojaat qilish mumkin emas.

Endi biz rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasiga e'tiboringizni qaratamiz.

Amerika Qo'shma Shtatlarida suv tarmoqlariga ulanishda ma'muriy tartib va shikoyat mexanizmi rivojlangan.

Har bir shtatning suv ta'minoti idoralari mustaqil ishlaydi, lekin:

- fuqarolar va tadbirkorlar shikoyatni birinchi bosqichda idora ichida hal etadi;
- rad etilgan taqdirda shtat sudiga murojaat qilinadi;
- elektron portallar orqali murojaat qilish imkoniyati keng tarqalgan.

Germaniyada suv tarmoqlariga ulanish federal va mahalliy qonunchilik bilan tartibga solinadi.

Ma'muriy hujjat ustidan shikoyat:

- mahalliy kommunal idoralarda ko'rib chiqiladi;
- shikoyat rad etilsa, Verwaltungsgericht (ma'muriy sud)ga murojaat qilinadi.

Shu bilan birga, texnik shart olish jarayoni aniq muddatlar bilan cheklangan va elektron monitoring mavjud.

Buyuk Britaniyada fuqarolar va biznes subyektlari uchun suv ta'minoti xizmatlarida:

- shikoyatlar xizmat ko'rsatish tashkilotining ichki tartibi orqali hal qilinadi;
- rad etilgan shikoyatni Ofwat (suvni tartibga soluvchi davlat organi) ko'rib chiqadi;
- keyingi bosqichda fuqarolar Ma'muriy yoki fuqarolik sudlariga murojaat qilishi mumkin.

Yaponiya tajribasida shikoyatlar "Fast-track" ("Tez-yo'l") tartibda ko'riladi.

Texnik shart berish jarayoni:

- mahalliy idoralarda avtomatlashtirilgan elektron tizim orqali amalga oshiriladi;
- shikoyat rad etilganda, sudga murojaat qilish aniq vaqt ichida amalga oshiriladi.

O'zbekiston va rivojlangan mamlakatlar tajribasini solishtirganda:

O'xshashliklar: texnik shart ma'muriy hujjat hisoblanadi, shikoyat mexanizmi mavjud, sudgacha tartib majburiy.

Farqlar: rivojlangan mamlakatlarda elektron xizmatlar keng joriy qilingan, fast-track va monitoring tizimi mavjud, muddatlar aniq va shaffof belgilangan. O'zbekistonda elektron xizmatlar joriy etilmoqda, lekin amaliyotda nazorat va monitoring hali etarli emas.

Rivojlangan davlat tajribasini o'rganilgan holda sohani rivojlantirish yuzasidan quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

Birinchidan, qonunchilikni takomillashtirish: texnik shart berish jarayonini aniq muddatlar bilan tartibga solish.

Ikkinchidan, rivojlangan mamlakatlar tajribasini joriy etish: fast-track tizim, monitoring va elektron shikoyat portallari.

Uchinchidan, mazkur sohada fuqarolar huquqiy savodxonligini oshirish uchun ma'muriy tartib-taomillar bo'yicha targ'ibotlar kuchaytirilishi.

To'rtinchidan, sudgacha ko'rib chiqish jarayonini samarali qilish uchun jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash tarmoqlariga ulanish uchun texnik shartlarni olish jarayoni fuqarolar va tadbirkorlarning konstitutsion huquqlarini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu jarayonning shaffof, tezkor va qonuniy bo'lishi davlat boshqaruvi samaradorligini belgilaydi. Suv ta'minoti va suvni chiqarib tashlash tarmoqlariga ulanish uchun texnik shartlarni olishda qonunchilik hujjatlariga muvofiq ma'muriy hujjatlarni sudgacha ko'rib chiqish mexanizmi huquqlarni tezkor himoya qilish, davlat organlari faoliyati ustidan samarali nazoratni ta'minlash va sudlar yuklamasini kamaytirishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. 2023-yil. <https://lex.uz/docs/6445145>
2. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 08-yanvardagi "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi O'RQ-457-son Qonuni. <https://lex.uz/ru/docs/3492199>
3. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 22-iyuldagi "Ichimlik suvi ta'minoti va oqova suvlarni chiqarib yuborish to'g'risida"gi O'RQ-784-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-6126864>
4. O'zbekiston Respublikasining Suv Kodeksi (31.10.2025). <https://lex.uz/docs/7655343#7657415>
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 31-martdagi "Muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy reglamentlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 256-son qarori. <https://lex.uz/docs/3645661#3649894>
6. Abdullaev I. 2023 yil natijalari. "O'zsuvta'minot" AJning xalqaro-ilmiy ommabop - "Aqua" jurnali №17 (yanvar-fevral) 2024. - 19 b.
7. Zayniddinov Z "O'zsuvta'minot" AJ: sohadagi raqamlashtirish – qulaylik, aniqlik va shaffoflik garovi. O'zsuvta'minot" AJning xalqaro-ilmiy ommabop - "Aqua" jurnali №12 (yanvar-fevral) 2023. -35 b.
8. <https://uzsuv.uz/uz/magazines>.